

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13924054>

**REALIYA LINGVOKULTUROLOGIYANING ASOSIY  
TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA  
(U.AZIM “SO‘NGSO‘ZLAR” ASARI MISOLIDA)**

**Rashidova Sarvinoz Mirzohid qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti

tilshunoslik kafedrası 2-kurs magistranti

[sarvinozrashidova0212@gmail.com](mailto:sarvinozrashidova0212@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada realiya tushunchasi va uning mohiyati, lingvokulturologiyadagi o‘rni haqida fikrlar bildirilgan. Realija birliklarining xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan bog‘liqligi hamda ularning lug‘at boyligini oshirishda, milliylikni aks ettirishda tutgan o‘rni Usmon Azimning “So‘ngso‘zlar” asaridan olingan ba‘zi misollar orqali izohlangan.*

**Kalit so‘zlar:** *realiya, milliylik, lingvokulturologiya, muqobilsiz leksika, so‘ngso‘zlar.*

**REALITY AS ONE OF THE BASIC CONCEPTS OF  
LINGUOCULTUROLOGY  
(IN THE EXAMPLE OF U. AZIM’S "SONGSOZLAR")**

**ABSTRACT**

*In this article, opinions are expressed about the concept of reality and its essence, its place in linguistic and cultural studies. The connection of realia units with the lifestyle, worldview and culture of the people and their role in increasing the vocabulary and reflecting the nationality is explained through some examples taken from Usman Azim’s work "Songsozlar".*

**Keywords:** *reality, nationality, linguistic and cultural studies, non-alternative lexicon, songsozlar.*

## KIRISH

Jamiyat o'zgarib borgani sayin, uning asosiy aloqa vositasi bo'lmish til ham o'z o'rnida unga moslashib boraveradi. Hozirgi kunda tilshunoslikning ko'plab yo'nalishlari mavjudki, bularning ba'zilari tilni antroposentrik nazariya asosida o'rganish natijasida paydo bo'ldi. Psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmlingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika kabi bir qancha fanlar tilning jamiyat, inson va uning ongi bilan, qolaversa, milliy-madaniy hayoti, qadriyatlarini bilan bevosita aloqada ekanligini isbotlab berdi. Bu kabi qator fanlarning yuzaga kelishi til hodisasini o'rganish hali hamon chegara bilmasligidan, doimo rivojlanishda ekanligidan dalolatdir. Nafaqat dunyo tilshunosligida, balki o'zbek tilshunosligida ham lingvistikaning nisbatan yangi yo'nalishlarida sezilarli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o'rinda turadi. Til madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo'yuvchi vosita bo'lishiga yordam beradi. Lingvokulturologiyani alohida fan sifatida shakllanishi XX asrning 90-yillariga to'g'ri keladi. Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari hamkorligida, ammo tilshunoslikning ustuvorligida yuzaga kelgan yo'nalishdir [1,12]. Bu fan til va madaniyatni o'zaro aloqada o'rganuvchi fan sifatida yuzaga keldi. Maqolamizning obyekti bo'lgan realiyalar mazkur fanning ko'plab asosiy tushunchalari qatorida turadi.

Realiya (lotincha) "real" – "moddiy", "haqiqiy narsalar" degan ma'noni bildirib, mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni anglatadi. Realialarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ham ularning aynan predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir. Realiya muqobilsiz leksika turlaridan biri sifatida lingvokulturologiyada o'rganiladi.

Realiya haqida M. L. Vaysburd shunday ta'rif beradi: "Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxonalar yoki tashkilotlarning nomlari,

kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko‘plab narsalar nomlaridan iborat” [2, 98-100].

Rus tarjimashunosi Andrey Fedorov esa “realiya”ga “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi”, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo‘q bo‘lgan so‘zlar”, deb ta’rif beradi [3,160].

A.D. Shveytser fikriga ko‘ra, realiyalarning o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya’ni ular uchun begona bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi.[4,153]

O‘zbek tilshunoslari ham realiyaga turlicha munosabat bildirganlar. Masalan, Durдона Xudoyberganova milliy realiyaga shunday ta’rif beradi: “Muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo‘lgan parametrlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo‘lmagan yoki begona bo‘lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo‘lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari, muqobilsiz leksika turlaridan biri”. [5,32]

## NATIJALAR

Milliy madaniy birliklar ma’lum xalqqa xos bo‘lgan holda, uni boshqa birliklardan ajratib turadi. Urf-odatlar, qadriyatlar, maqol, matal, ibora, hatto so‘zlarda ham milliylikni tashish va anglatish xususiyati mavjud bo‘ladi. Lekin ularning ba’zilarida to‘g‘ridan to‘g‘ri ushbu belgi ko‘rinib tursa, boshqalarida yashirin holatda bo‘ladi, ya’ni ma’no orqali yuzaga chiqadi. Masalan, biz uchun non baraka, to‘kinlik ramzi, eng aziz ne’mat sifatida e’zozlanadi. Dasturxonga nonni yakka qo‘ymaydilar, mehmonga borilganda, xastalar ziyorat qilinganda, albatta non olib boriladi. Bizning mentalitetimizda uning uvog‘i ham o‘zi kabi ulug‘lanadi, ammo qaysidir millat tomonidan unga oddiy yegulik sifatida qaraladi. Yoki osh realiyasi. Bu so‘z o‘zbek xalqining ongida alohida milliylikni aks ettiradi. Ya’ni, bu taom xalqimizning

mehmondo‘stligini ifoda etadi, bizning shoh taomimiz sifatida alohida e‘tibor bilan tayyorlanadi.

*Endi rostini aytaversak, dunyoning oltidan bir quruqligining poytaxti bo‘lgan shahardan... piyoz topilmadi. Osh qilish xavf ostida qolayotgani; mehmondo ‘st va qo ‘li ochiq xalqimizning bu tabarruk rusumini bajarishga qurbi yetmayotgan Adabiyot instituti talabalari bo‘lmish do‘stlarimiz sha‘niga qora dog‘ tushishini hammamiz qorin hovuchlab (ochmiz!) anglab turibmiz. [6, 60].*

O‘zbek xonadoniga mehmon kelsa, uni biron issiq ovqatsiz, ayniqsa, oshsiz kuzatib yubormaydilar. Bu hol kutilgan yoki kutilmagan mehmon kelganda, “do‘ppidek” bo‘lsa ham osh tortilganda namoyon bo‘ladi:

*Imtihon topshirish tashvishlarini bir chetga yig‘ishtirib qo‘yib, ijaraxonaga borganimizdanoq qo‘lyozmani o‘qishga tutinamiz. “Begona” deb nomlangan bu qissa bizga yoqadi. Dadaxon akaga ertasi qo‘ng‘iroq qilamiz. U kishi bizni uyiga taklif qiladi.*

*Dadaxon aka maqtovlarni eshita-eshita osh damlaydi. Osh yeyilib, ketishga ruxsat so‘rash payti yetganda, to‘satdan savol berib qoladilar... [6, 42].*

*Mehmon Abdulla Qahhor bilan “sen-sen”lashib gaplashadi. Uning bu tarzda muomalasi menga g‘alati tuyuladi. Nazarimda, bu odam Abdulla Qahhorning soyasiga ham salom berishi kerakday edi.*

*Osh keladi. Domla oldiga esa alohida taom qo‘yiladi — tarelkada ikki sosiska, yonida yashil no‘xat.*

*— Oshdan olinglar, — deydi domla.*

Osh realiyasi o‘zining milliy semasini maqollarda ham aks ettirgan:

*Mehmonga osh qo‘y,  
Ikki qo‘lin bo‘sh qo‘y.  
Osh mehmon bilan aziz.  
Osh egasi bilan shirin.  
Rizqli mehmon osh ustidan chiqar.  
O‘zbekka osh yaxshi,  
Qozoqqa – go‘sh.*

O‘zbek tilida osh ko‘p ma‘noli so‘z bo‘lib, izohli lug‘atda shunday izohlanadi: osh-fors. 1. Yovg‘on sho‘rva, xo‘rda. 2. Umuman, har qanday ovqat taom. 3. Palov. 4. Ba‘zi munosabatlar bilan o‘tkaziladigan ziyofatlar nomining tarkibiy qismi, masalan, qiz oshi, arvoth oshi. Osh realiyasi bilan sinonim sifatida palov so‘zi ishlatiladi. O‘zbek palovi – bu sharqona taomlarni xush ko‘ruvchilar va shirin ovqatlarni qadrllovchilar taomidir. Dunyoda 100 dan ortiq palov tayyorlash retsepti mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekistonda palov tayyorlash o‘zgachadir. O‘zbekistonning har bir mintaqasi o‘zining yagona palov tayyorlash retseptiga egadir. Mazkur taom boshqa xalqlardan mavjud bo‘lsa-da, milliy semalari bilan o‘zbek palovidan farq qiladi.

*Do‘stlar, — deydi Murod jo‘shib, — juda ajoyib o‘tiribmiz-e! Oshimiz ham zo‘r bo‘ladi! Kamina bugun konyakli palov tayyorlayman!*

*Aralash-quralashday tuyulgan davra birdan tartibga kiradi. U hayron, chunki o‘zbek o‘zbek bo‘lgandan buyon ne turfa palov tayyorlamagan deysiz. [6, 62].*

Realiyaning xususiyati u ifoda etadigan ma‘no orqali oydinlashadi. Muayyan xalqning turli davrlardagi yashash tarzi, odatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uning ma‘nosiga ta‘sir etadi. Shu sababli realiya haqida gapirilganda, unda aks etuvchi milliy semani chetda qoldirib bo‘lmaydi. Yana bir realiyalardan biri bu – chopon realiyasi.

*Dars tugaydi. Men kitob-daftarimni choponimning tagidan yelkamga qo‘yaman-da, ostidan belbog‘ni mahkam bog‘layman. [6. 6]*

Yuqorida keltirilgan parchadagi chopon so‘zi, kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy ust-bosh, to‘nni bildiradi. O‘zbek choponlari rangi, uzunligi, kengligi va kiyinish uslubiga qarab har xil hududlarda farqlangan. Masalan, Buxoroda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshon vodiylarida uzun va keng, uzun yengli, paxta yoki yarim ipak rangli matodan tikilgan chopon, Farg‘ona va Toshkentda yashil yoki ko‘k-yashil chopon kiyish odat bo‘lgan. Asrimiz boshlaridan qora satindan tikilgan chopon keng tarqalgan. Ushbu realiya milliy kiyim bo‘lishi bilan birga xalqimizga xos turli jihatlarni ko‘rsatib beradi. Qadimda bu kiyim yoshiga, ijtimoiy holatiga, kundalik hayotiga qarab turlicha kiyilgan. Yoshlar orasida bayram libosi sifatida ochiq rangli katta yo‘l-yo‘l beqasam to‘n kiyish urf hisoblangan. Qishloq

joylarda bunday chopon kuyov sarposiga kirgan. Uning holatiga qarab davrni, insonning turmush tarzini anglab olish mumkin bo'lgan. U.Azim bu realiyani turmush sharoiti og'ir, qiynalغان xalq qiyofasini tasvirlashda mohirona keltiradi:

*Urush fojealari tobora olislab ketayotgan bo'lsa ham, hayotning hozir ham oyog'i yalang, choponi ming yamoq edi. Bu nochorlik hatto orzulanishga ham xalaqit berardi.* [6,34]

Chopon va to'n so'zlari bir ma'noda ishlatiladi. Izohli lug'atda ham shu tarzda keltirilgan. Xalqimizda yaxshi kunlarda, to'y va tomoshalarda, katta yubileylarda tantananing sababchisiga zarbof chopon kiygizish odati mavjud. Barchaning ko'z oldida yelkaga to'n yopish urf bo'lgan. Yoki quda-andalar ham bir biriga, qolaversa, kelin tomon kuyovga maxsus to'n yuborishi bizning hududimizga oid urf-odatlardan biri. Ayniqsa, bu holat hozirgi kunda yana avj olgan. Ba'zi joylarda esa uyiga kelgan mehmonning izzati sifatida unga chopon hadya qilinadi.

*Mehmondorchilik Maxsum buvaning tabarruk qo'llari bilan necha xush taomlar tortilgan quyug mehmondorchilik nihoyasiga yetadi. Mezbondan ruxsat so'raymiz. U kishi dasturxonga duo o'qiydilar.*

— *Endi, shoshmanglar, hozir...*

*U kishining imosi bilan tashqaridan choponlar olib kirishadi.*

*Biz hayrat ichra xijolat tortamiz.* [6, 463]

*Maxsum buva bizni sidqidildan "chopon muborak" etadi va tashqariga yana imo qiladilar.* [6, 464]

O'zbek xalqida ushbu milliy kiyim turi motam libosi sifatida ham kiyiladi. Dafn marosimida vafot etgan kishining yaqinlari to'n kiyib, beliga belbog' bog'lab turadilar. Bu urf-odat vafot etgan insonga bo'lgan hurmatni ham ifoda etadi:

*Abdulla Qahhor vafot etganda, yosh adiblar "tepaga" noroziliklarini bildirganlar: O'lmas Umarbekov boshchiligida ustozlarining tobuti yonida chopon kiyib, bel bog'lab turganlar.* [6, 304]

*O'lmas Umarbekov Qahhorning qadri uchun chopon kiyib, belini bog'lashga o'zida jur'at topdi.* [6, 305]

Demak, chopon o'zining qulayligi, sovuq kunlarda tanani issiq saqlash xususiyati bilan bir qatorda, milliy koloritni o'zida mujassam etgan realiyalardan biri ekan. Bundan kelib chiqadiki, realiyalarni moddiy madaniyat belgilari sifatida aks ettirish mumkin.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, realiyalarni muayyan xalqning milliy, madaniy, ijtimoiy hayotini, turmush tarzini, boy urf-odat va an'analarini o'zida yorqin aks ettiruvchi va shu xususiyatlari bilan boshqa xalqlar milliy madaniyatida takrorlanmaydigan, o'ziga xos birliklar deya ta'rif beramiz. Realiya sifatida tan olingan so'zlar o'sha madaniyat doirasida ma'lum ma'no anglatadi. Demak, realiya xalq tomonidan berilgan alohida ma'noga oidligi, milliy va tarixiy bo'yoqqa ega bo'lishi, ko'p holatlarda moddiy narsa va buyumlarni ifoda etishi, boshqa madaniyatlarda uchramasligi kabi xususiyatlarni jamlaydi. Ularning tadqiqida esa semantik taraqqiyotni tadqiq etish ahamiyatlidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. – B.12
2. Вайсбурд М. Л. Реалии как элемент страноведения // Русский язык за рубежом.1972.№3.С. 98–100.
3. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М.: Высш. шк., 1983
4. Швейцер А.Д. Теория перевода, статус, проблемы, аспекты. М.: Наука, 1988.
5. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача луғати. –Тошкент. Turon zamin ziyo. 2015. 32-б
6. Азим У. Сўнгсўзлар. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020. -512 б.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent. 2008. 5-jild.
8. O'zbek xalq maqollari. -Toshkent. Adabiyot uchqunlari. 2014. -152 b